Oqibatda, cho'kmada volfram kislotasi hosil bolib, u bilan birga parchalanmasdan qolgan sheyelit minerali, qum tuproq va boshqa moddalar bo'ladi. Natijada, texnik volfram kislotasi olinadi. Uni issiq suv bilan bir necha marta yuvib tashlanadi. Olingan texnik volfram kislotasi tarkibida 2—3% chiqindilar bo'lgani sababli, tozalash uchun yuboriladi. Volfram kislotasining tarkibida 0,2÷0,3% kalsiy, natriy, silikat kislotasi ( $H_2SiO_3$ ), molibden kislotasi ( $H_2MoO_4$ ) boladi. Volfram kislotasining yuzasi yutilgan (sorbsiyalangan) temir, margimush, alyuminiy, fosfor, margimush birikmalari hamda boshqa bir qancha moddalar bilan ifloslangan bo'ladi. Shuning uchun volfram kislotasini tozalash lozim.

Amaliyotda volfram boyitmalarini soda eritmasida avtoklavlarda parchalash ikki usulda olib boriladi, ya'ni davriy va uzluksiz. Quyidagi 5-rasmda davriy usulda parchalashning dastgohlar ketma-ketlik zanjir sxemasi keltirilgan. Sxemada ko'rsatilgandak avtoklav gorizontal shaklda bo'lib, u o'z o'qi atrofida aylana bo'ylab harakatlanib bo'tanani aralashtiradi. Avtoklav zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan bo'lib, devorining qalinligi 8-10 mm, ishchi diometri 2,8–3,0 m, uzunligi 5–6 m gacha bo'ladi. Avtoklavdagi suv bug'i yordamida qizdiriladi




**14.1-rasm. Davriy usulda W-boyitmalarini avtoklavda parchlashning dastgohlar ketma-ketlik zanjir sxemasi**

1 – gorizontal avtoklav; 2 – bo'tana yuklovchi quvur; 3 – bo'tanani tortuvchi nasos; 4 – manometr; 5 – bo'tanani isitgich – reaktor;

6 - uzibuglatgich; 7 – tomchilatib ajratgich; 8 – o‘zi bug‘latgichga bo‘tana kirish joyi; 9 – avtoklav; 10 – bo‘tanani chiqaruvchi quvur; 11 – butanani yiguvchi dastgoh.


Volfram boyitmalarini usulda parchalash harakatlanmaydigan, vertikal holatda kema-ket joylashtirilgan bir nechta avtoklavlarda olib boriladi. Avtoklav zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan bo‘lib, devorining qalinligi 8-10 mm, ishchi diametri 1,8–2,0 m, balandligi 6–8 m gacha bo‘ladi. Avtoklavdagi suv bo‘g‘i yordamida qizdiriladi



#### 14.2-rasm. Uzluksiz usulda W-boyitmalarini avtoklavda parchalashning dastgohlar ketma-ketlik zanjir sxemasi

1 - dastlabki bo‘tanani isituvchi reaktor; 2 – porshenli nasos;  
3 – avtoklavlar; 4 – drossel; 5 – o‘zi bo‘g‘latgich; 6 – bo‘tana yig‘ich.

Ushbu usul asosan boyitma tarkibida 65÷70% WO<sub>3</sub> va unsur elementlari kam bo‘lgan volframitli boyitmalari uchun qollaniladi. Volfram boyitmalarini natriy gidroksidi bilan parchlashda quyidagi reaksiya ketadi;



Reaksiyaning muvozanat konstantasi.

$K_c = [Na_2WO_4]/[NaOH]^2$  jarayonning haroratiga bog‘liq bo‘lib quyidagicha o‘zgaradi, ya‘ni harorat 90, 120 va 150°C bo‘lganda  $K_c = 0,68; 2,23$  va  $2,27$  ga teng.

Jarayon 110 ÷ 120°C haroratda, eritmadagi NaOH ning konsentratsiyasi 25÷40% bo`lib, ishqorning sarfi stixometrik miqdordan 50% va undan ortiqdir. Bunday sharoitda boyitma parchalanish darajasi 98÷99% ni tashkil etadi. Volframitli boyitmalarini parchalash zanglamaydigan po`latdan tayorlangan, mexanik aralashtirgichli agitatorlarda olib boriladi.

### Nazorat savollari:

1. Volframitli boyitmalarni parchalashda qanday eritmada olib boriladi.
2. Davriy usulda W-boyitmalarini avtoklavda parchalashning dastgohlar ketma-ketlik zanjir sxemasini tushuntiring.
3. Eritmadan qanday unsur elementlardan tozalanadi.

### 15-amaliy mashg'ulot

#### Molibdenit boyitmalarining ratsional tarkibini hisobi

Metallurgiyada, shu jumladan, molibden ishlab chiqarishda ham texnologik hisobotlar dastlab xomashyo ratsional tarkibini hisoblashdan boshlanadi. Ratsional tarkibini hisoblash 100 kg xomashyo uchun olib boriladi. Ratsional tarkib deb: berilgan dastlabki ma'lumotga ko'ra xomashyo tashkil etgan moddalarni va birikmalarning alohida-alohida massasi va foizlarni aniqlash tushuniladi. Quyida texnologik hisoblar uchun adabiyotlardan, korxonalar amaliyotidan va internetdan olingan ma'lumotlardan foydanilgan;

15.1-jadval

Molibdenit sanoat mahsulotining moddiy tarkibi. % da;

Mo	Cu	Fe	Zn	Pb	S	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	H <sub>2</sub> O	Boshqalar	Jami
45	4	3	1,2	0,2	1,0	12,0	1,3	2,1	1,4	29,00	100

Molibdenit sanoat mahsulotining kimyoviy tahliliga ko'ra moddalar quyidagi birikmalar xolida boladi; MoO<sub>3</sub>, MoO<sub>2</sub>, CuMoO<sub>4</sub>, ZnMoO<sub>4</sub>, PbMoO<sub>4</sub>, Fe<sub>2</sub>(MoO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>, Sn(MoO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>, CaMoO<sub>4</sub>, MoS<sub>2</sub>, SiO<sub>2</sub> va Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>.

Amaliyotdan olingan ma'lumotlarga asosan molibdenit boyitmasini oksidlovchi kuydirish jarayonida boyitmaning disulfurizatsiyalanish darajasi 98,5–99,0% ni tashkil etib, molibden sanoat mahsulotidagi (molibdenit boyitmasi) umumiy molibdenitning ( $\text{MoS}_2$ ) ma'lum qismi mahsulotda saqlanib qoladi.

### ***Ratsional tarkibini hisoblash***

1. Molibdenit sanoat mahsulotidagi  $\text{MoO}_3$  ning miqdorini aniqlaymiz.

a) Dastlabki xomashyo tarkibidagi S (1,0%) miqdorini bilgan holda  $\text{MoS}_2$  bilan bog'langan Mo ning massasini hisoblab topamiz;

$$m_{\text{Mo}} = (95,94 \cdot 1,0) / 64 = 1,499 \text{ yoki } 1,5 \text{ kg}$$

$$m_{\text{MoS}_2} = 1,5 + 1,0 = 2,5 \text{ kg}$$

b) Oksidilangan ( $\text{MoO}_3$ ) Mo massasini aniqlaymiz  
 $45,5 - 1,5 = 44,00 \text{ kg}$  molibden  $\text{MoO}_3$  holda bo'ladi.

d) Sanoat mahsulotidagi molibden uch oksidi ( $\text{MoO}_3$ ) tarkibidan kislorod miqdorini aniqlash. Buning uchun sanoat mahsulotidagi umumiy molibdendan sulfide holdagi molibden ayirmasidan qolgan Mo miqdori (Mo-44,0 %) dan foydalangan holda, ya'ni

$$\begin{array}{r} 95,94 \text{ Mo} \quad \text{-----} \quad 48,0 \text{ O}_2 \\ 44,0 \text{ Mo} \quad \text{-----} \quad \text{Mo}_2 \\ \hline \quad \quad \quad \underline{44,0 \cdot 48,0} \\ \text{Mo}_2 = \quad 45,9 \quad = 22,01 \text{ kg} \end{array}$$

$$\text{Mo}_2 = 22,01 \text{ kg O}_2$$

demak, kislorod 22,01 kg ni tashkil etsa,

a) Sanoat mahsulotidagi molibden uch oksidi ( $\text{MoO}_3$ ) umumiy miqdorining jami qiymati.

$$\text{MoO}_3 = 44,0 + 22,01 = 66,01 \text{ kg}$$

Ya'ni, molibden uch oksidi ( $\text{MoO}_3$ ) qiymati 66,01 kg ni tashkil etadi.

2) Sanoat mahsuloti tarkibidan mis molibdati ( $\text{CuMoO}_4$ ) birimasidagi moddalar miqdorini aniqlash uchun  $\text{CuMoO}_4$  ni  $\text{CuO}$  va  $\text{MoO}_3$  xolida ajratib hisoblashni olib boramiz.

a) Sanoat mahsulotidagi tarkibidagi mis 4,7% ni tashkil etsa, u holda  $\text{CuO}$  dagi kislorod miqdorini aniqlaymiz

$$X_{\text{O}_2}(\text{CuO}) = (4,7 \cdot 16,0) / 64 = 1,175 \approx 1,20 \text{ kg O}_2$$

$$m_{\text{CuO}} = 4,7 + 1,20 = 5,90 \text{ kg}$$

b)  $\text{CuO}$  di bilan bog'langan  $\text{MoO}_3$  va  $\text{Mo}$  ning miqdorini aniqlaymiz

$$m_{(\text{MoO}_3)} = (95,94 + 48) \cdot 5,9 / (64 + 16) = 10,615 \approx 10,6 \text{ kg MoO}_3$$

$$m_{\text{Mo}} = (10,60 \cdot 95,94) / 143,94 = 7,0755 \approx 7,08 \text{ kg}$$

7,08 kg  $\text{MoO}_3$  tarkibidagi kislorod miqdorini aniqlaymiz

$$X_{\text{O}_2} = \frac{7,08 \cdot 48,0}{95,94} = 3,42 \text{ yoki } 3,5 \text{ kg O}_2 \text{ mos keladi}$$

$$\text{Mo } m_{(\text{CuMoO}_4)} = 5,9 + 10,6 = 16,50 \text{ kg CuMoO}_4$$

3. Sanoat mahsulotidagi tarkibidan temir uch oksidi ( $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ) massasini aniqlash;

$$M_{\text{Fe}_2\text{O}_3} = 56,0 \cdot 2 + 16,0 \cdot 3 = 160$$

ya'ni, temir uch oksidi ( $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ) molekulyar massasi 160,0 kg ni tashkil etadi.

a) Sanoat mahsulotidagi temir uch oksidi ( $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ) tarkibidan kislorod miqdorini aniqlash. Buning uchun proporsiya tuzib va boyitmadagi temir miqdori ( $\text{Fe}$ ; 2,1 kg) dan foydalangan holda, ya'ni:

$$56,0 \cdot 2 \text{ Fe} - 16,0 \cdot 3 \text{ O}_2$$

$$3,2 \text{ kg Fe} - X_{\text{O}_2}$$

$$X_{\text{O}_2} = \frac{3,2 \cdot 48,0}{112,0} = 1,37 \text{ kg}$$

$$m_{O_2} = 1,37 \text{ kg } O_2$$

Demak, boyitmada temir uchun kislorod miqdoring 1,37 kg ni tashkil etadi.

Sanoat mahsulotidagi temir uch oksidi ( $Fe_2O_3$ ) miqdorini jami qiymati, ya'ni, temir uch oksidi ( $Fe_2O_3$ ) qiymati  $3,2 + 1,37 = 4,57$  kg ni tashkil etadi.

b)  $Fe_2O_3$  bilan bog'langa  $MoO_3$  va Mo ning miqdorini aniqlaymiz

$$m_{MoO_3} = (143,94 \cdot 4,57) / 160 = 4,11 \text{ kg}$$

4,11 kg  $MoO_3$  tarkibida qancha kislorod borligini aniqlaymiz, ya'ni

$$m_{O_2} = (48 \cdot 4,11) / 143,94 = 1,37 \text{ kg bo'ladi.}$$

$$m_{Mo} = 4,11 - 1,37 = 2,74 \text{ kg Mo.}$$

U xolda sanoat mahsulotidagi  $Fe_2(MoO_4)_3$  ning umumiy miqdori  $4,57 + 4,11 = 8,68$  kg ni tashkil etadi.

4. Sanoat mahsuloti tarkibidagi rux molibdatini ( $ZnMoO_4$ ) tarkibidagi moddalar miqdorini aniqlash uchun  $ZnMoO_4$  ni  $ZnO$  va  $MoO_3$  xolida ajratib xisoblashni olib boramiz.

a)  $ZnO$  dagi kislorod miqdorini aniqlash.

$$m_{O_2} (ZnO) = (16 \cdot 1,2) / 65 = 0,29 \text{ kg } O_2$$

$$m_{ZnO} = 1,2 + 0,29 = 1,49 \text{ kg } ZnO$$

b)  $ZnO$  bilan bog'langa  $MoO_3$  va Mo ning miqdorini aniqlaymiz

$$MoO_3 = (143,94 \cdot 1,49) / 81 = 2,65 \text{ kg,}$$

undagi kislorod miqdorini aniqlaymiz

$$m_{O_2} = \frac{48 \cdot 2,65}{143,94} = 0,87 \text{ kg } O_2$$

$$m_{Mo} = 2,65 - 0,87 = 1,78 \text{ kg Mo bo'ladi,}$$

u xolda  $ZnMoO_3$  ning umumiy miqdori

$$1,49 + 2,65 = 4,14 \text{ kg ni tashkil etadi.}$$

5. Sanoat mahsulotidagi qorg'oshin molibdati ( $PbMoO_4$ ) tarkibidagi moddalar miqdorini aniqlash uchun  $PbMoO_4$  ni  $PbO$  va  $MoO_3$  holida ajratib xisoblashni olib boramiz.

a) PbO dagi kislorod miqdorini aniqlash.

$$K_{O_2}(\text{PbO}) = (16 \cdot 0,2) / 207,2 = 0,015 \text{ kg O}_2$$

207,2 - qorg'shinning molekulyar massasi

$$m_{\text{PbO}} = 0,2 + 0,015 = 0,215 \text{ kg PbO}$$

b) PbO bilan bog'langan MoO<sub>3</sub> va Mo ning miqdorini aniqlaymiz

MoO<sub>3</sub> = (143,94 · 0,215) / 223,2 = 0,139 kg,  
undagi kislorod miqdorini aniqlaymiz

$$K_{O_2} = \frac{48 \cdot 0,139}{143,94} = 0,046 \text{ kg O}_2$$

$$m_{\text{Mo}} = 0,139 - 0,046 = 0,093 \text{ kg Mo bo'ladi,}$$

$$m_{\text{MoO}_3} = 0,093 + 0,046 = 0,139 \text{ kg MoO}_3$$

u xolda PbMoO<sub>4</sub> ning umumiy miqdori

$$0,215 + 0,139 = 0,354 \text{ kg ni tashkil etadi}$$

6. Sanoat mahsulotidagi kalsiy molibdatini (CaMoO<sub>4</sub>) tarkibidagi moddalar miqdorini aniqlash uchun CaMoO<sub>4</sub> ni CaO va MoO<sub>3</sub> holida ajratib xisoblashni olib boramiz.

a) CaO dagi kislorod miqdorini aniqlash.

$$K_{O_2}(\text{CaO}) = (16 \cdot 2,1) / 40,08 = 0,838 \text{ yoki } 0,84 \text{ kg O}_2$$

40,08 - kalsiyning molekulyar massasi

$$M_{\text{CaO}} = 2,1 + 0,84 = 2,94 \text{ kg CaO}$$

b) CaO bilan bog'langa MoO<sub>3</sub> va Mo ning miqdorini aniqlaymiz

MoO<sub>3</sub> = (143,94 · 2,94) / 56,08 = 7,546 yoki 7,55 kg,  
undagi kislorod miqdorini aniqlaymiz

$$K_{O_2} = \frac{48 \cdot 7,55}{143,94} = 2,52 \text{ kg O}_2$$

$$m_{\text{Mo}} = 7,55 - 2,52 = 5,03 \text{ kg Mo bo'ladi,}$$

u xolda CaMoO<sub>4</sub> ning umumiy miqdori

$$2,94 + 7,55 = 10,49 \text{ kg ni tashkil etadi}$$

7. Sanoat mahsulotidagi MoO<sub>3</sub> ning miqdorini aniqlaymiz

$M_{Mo} = Mo_{umum} - [MoS_2 + CuMoO_4 + Fe_2(MoO_4)_3 + ZnMoO_4 + PbMoO_4 + CaMoO_4] = 45,5 - (1,5 + 7,08 + 2,7 + 0,09 + 1,78 + 5,03) = 27,32$  kg molibden  $MoO_3$  holida bo'lganligini aniqlandi. O'z navbatida u bilan bog'langan kislorod miqdorini aniqlaymiz

$$MoO_2 = \frac{44 \cdot 27,32}{95,94} = 13,67 \text{ kg } O_2$$

$$M_{MoO_3} = 27,92 + 13,97 = 41,89 \text{ kg } MoO_3$$

### Nazorat savollari:


1. Molibdenit boyitmalarining ratsional tarkibi qanday hisoblanadi.
2. Molibdenit boyitmasini oksidlovchi kuydirish jarayoni qanday amalga oshiriladi.
3. Molibdenli qanday minerallarni bilasiz?

### 16-amaliy mashg'ulot

#### Molibdenit boyitmalarini oksidlovchi kuydirish jarayonining material balasi hisobi

##### Jarayonning material balansini 100 kg boyitma uchun hisoblaymiz

1. Molibdenni tanlab eritish uchun sarflanadigan ammiak ( $NH_4OH$ ) miqdori quyidagi reaksiya orqali aniqlanadi.



$$143,94 \text{ kg } MoO_3 - 70,0 \text{ kg } NH_4OH$$

$$40,99 \text{ kg } MoO_3 - X_{NH_4OH}$$

$$X_{NH_4OH} = \frac{70,0 \text{ kg} \cdot 40,99 \text{ kg}}{143,94 \text{ kg}} = 19,34$$

$$X = 19,93 \text{ kg } NH_4OH$$

Kuydirilgan molibden boyitmasining ratsional tarkibi. 16.1-jadval

Komponent lar Birikmalar	Mo	Cu	Fe	Zn	Pb	S	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	O <sub>2</sub>	H <sub>2</sub> O	Boshqalar	Jami
MoO <sub>3</sub>	27,32									13,67			40,99
CuMoO <sub>4</sub>	7,08	4,7								4,70			16,48
ZnMoO <sub>4</sub>	1,78			1,2						1,18			4,16
PbMoO <sub>4</sub>	0,09				0,2					0,06			0,35
Fe <sub>2</sub> (MoO <sub>4</sub> ) <sub>3</sub>	2,7		3,2							2,74			8,64
CaMoO <sub>4</sub>	5,03								2,1	3,36			10,49
MoS <sub>2</sub>	1,5					1							1,5
SiO <sub>2</sub>							11,0						11,0
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>								1,3					1,3
H <sub>2</sub> O											1,4		1,4
Boshqalar												2.69	2.69
Jami	45,5	4,7	3,2	1,2	0,2	1,0	11,0	1,3	2,1	25,71	1,4	2.69	100

Demak, jarayonda molibdenni eritmaga o'tkazish uchun sarflanadigan amiak miqdori 19.93 kg ni tashkil etadi.

2. Molibdenni tanlab eritishda hosil bo'lgan ammoniy molibdat tuzini aniqlash. Amaliyot olingan ma'lumotlarga ko'ra tanlab eritishda va eritmani unsur elementlardan tozalash jarayonlarida boyitmadagi molibdenning 3÷7% qattiq fazada qoladi, bu ko'satkichni 3% deb qabul qilamiz; 143,94 kg MoO<sub>3</sub> – 195,94 kg (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>MoO<sub>4</sub>

$$40.99 \cdot 0,97 \text{ kg MoO}_3 - \frac{195,94}{1,03} = 143,94$$

$$\frac{143,94}{2,69} = 54.12 \approx 54.1$$

$$X = 54.1 \text{ kg (NH}_4)_2\text{MoO}_4$$

Demak, jarayonda molibdenni eritmaga o'tkazish uchun sarflanadigan (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>MoO<sub>4</sub> miqdori 54.1 kg ni tashkil etadi.

3. molibdenni tanlab eritishda ajralayotgan suv miqdorini molibden uch oksidi (MoO<sub>3</sub>) va ammoniy molibdat tuzi orqali aniqlash.

$$\begin{array}{r}
 195,94 \text{ kg}(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4 \text{ ——— } 18,0 \text{ kg H}_2\text{O} \\
 54,1 \text{ kg}(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_3 \text{ ——— } X_{\text{H}_2\text{O}} \\
 \frac{X_{\text{H}_2\text{O}}}{195,94 \text{ kg}} = \frac{54,1 \text{ kg} \cdot 18,0 \text{ kg}}{195,94 \text{ kg}} = 4,96
 \end{array}$$

$$X = 4,96 \text{ kg H}_2\text{O}$$

Demak, jarayondan 4.96 kg miqdori suv (H<sub>2</sub>O) ajraladi.

4. Mis ammoniy gidroksidini miqdorini aniqlash.

Texnologiyadagi kimyoviy jarayonlarga ko'ra boyitma tarkibidagi mis oksidi, ammoniy gidroksidini hosil qiladi, so'ng mis ammiakli barqaror tuzi hosil bo'ladi. Shu sababli unga sarflanadigan ammiakni bosqichma-bosqich hisoblash.



Demak, shu reaksiyadan ammiak (NH<sub>4</sub>OH) miqdorini aniqlash.

$$\begin{array}{r}
 98,0 \text{ Cu}(\text{OH})_2 - 210,0 \text{ NH}_4\text{OH} \\
 16,48 \text{ kg Cu}(\text{OH})_2 - X_{\text{NH}_4\text{OH}} \\
 \frac{X_{\text{NH}_4\text{OH}}}{98,0} = \frac{16,48 \cdot 210,0}{98,0}
 \end{array}$$

$$X = 35,31 \text{ kg NH}_4\text{OH}$$

Demak, jarayonda mis ikki gidroksidining eritishga o'tkazishda ammiak (NH<sub>4</sub>OH) miqdori 35.31 kg ni tashkil etadi.

5. Boyitmadagi temirning ammoniy kompleks tuzi hosil qilinishi.

Xuddi misnikiga o'xshash lekin barqarordir. Shunga asosan unga sarflanadigan ammoniy gidroksidni bosqichma-bosqich hisoblanadi.



Demak, temir ammoniy kompleks tuzidan ammiakni miqdorini aniqlash.

$$\begin{array}{r}
 90,0 \text{ Fe}(\text{OH})_2 - 210,0 \text{ NH}_4\text{OH} \\
 8,64 \text{ kg Fe}(\text{OH})_2 - X_{\text{NH}_4\text{OH}}
 \end{array}$$

$$X_{\text{NH}_4\text{OH}} = \frac{2210,0 \cdot 3,54}{40,1}$$

$$X_{\text{NH}_4\text{OH}} = 20.16 \text{ kg NH}_4\text{OH}$$

Demak, jarayonda temir ammoniyli kompleks tuzidan ammiak miqdorini 20.16 kg ni tashkil etadi.

Jarayonda sarf bo'ladigan ammiakning nazariy miqdorini yig'indisini aniqlash.

$$19.93 \text{ kg} + 35.31 \text{ kg} + 20.16 \text{ kg} = 75.4 \text{ kg}$$

Demak, jarayon uchun ammiakni umumiy miqdori 75.4 kg ni tashkil etadi.

Lekin, amaliyotda olingan ma'lumotlarga ko'ra kuydirilgan molibden boyitmalarini ammiakli eritmalarda eritish uchun  $\text{NH}_4\text{OH}$  miqdori nazariy miqdoriga nisbatan 120 – 145 % ortiqcha olinadi.

Boyitma tarkibida ma'lum miqdorda unsur elementlar (Fe, Cu, P, Sn, As,  $\text{O}_2$ ,  $\text{SiO}_2$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ , CaO) bo'lganligi sababli nazariy miqdorga nisbatan 140 % ortiqcha olinadi, ya'ni;

$$X_{\text{kg}} = \frac{75.4 \text{ kg} \cdot 140\%}{100\%}$$

$$X = 105.56 \text{ kg}$$

U holda, umuman 100 kg kuydirilgan molibden tanlab eritish uchun 105.56 kg ni tashkil etadi va ammoniy molibdat sarflanadi.

Ammoniy molibdatni 20<sup>0</sup> C da solishtirma og'irligi 0,9 deb qabul qilsak, amaliyotda og'irligi kuyindinikini 8-10% li ammiak eritmaga olib boradi. Shuning uchun tarkibida 65 – 70 gr/l bo'lgan ammoniy molibdat eritmasini tayyorlash kerak, bo'tanadagi q:c=1(3:4)

### Nazorat savollari:

1. Molibdenit boyitmalarining oksidlovchi kuydirish qanday tartibda boradi.
2. Molibdenni tanlab eritish qanday eritmada olib boriladi?
3. Ammoniy molibdat necha gradusda olib boriladi.

### 17-amaliy mashg'ulot

## Molibdenit boyitmalarini oksidlovchi kuydirish jarayonining issiqlik balansi hisobi

Amaliyotga olingan ma'lumotlarga ko'ra tanlab eritishda moddalarning eritmaga o'tish darajasi quyidagicha, Mo – 95-96%, Cu – 86-90% , Fe – 79-82% oralig'ida deb qabul qilingan, qolgan moddalar eritmada kam eritilganligi sababli ular to'liq kekda qoladi deb qabul qilamiz va elementlarning kekda qolish miqdorini aniqlaymiz.

Molibden (Mo) ning kekda qolish miqdorini aniqlash.

$$45.5 \text{ kg Mo} - 100\%$$

$$X_{\text{kg Mo}} - 4,5 \%$$

$$X_{\text{kg}} = \frac{45,5 \text{ kg} \cdot 4,5\%}{100\%}$$

$$X = 2.04 \text{ kg Mo}$$

Demak, molibden (Mo)ning kekda qolish qiymati 2.04 kg ni tashkil etadi.

a) Mis (Cu) ning kekda qolish miqdorini aniqlash.

$$4,7 \text{ kg Cu} - 100 \%$$

$$X_{\text{kg Cu}} - 12\%$$

$$X_{\text{kg Cu}} = \frac{12\% \cdot 4,7 \text{ kg}}{100\%}$$

$$X = 0.564 \text{ kg Cu}$$

Demak, mis (Cu) ning kekda qolish qiymati 0,564 kg ni tashkil etadi.

b) Temir (Fe) ning kekda qolish miqdorini aniqlash.

$$3.2 \text{ kg Fe} - 100\%$$

$$X_{\text{kg Fe}} - 19\%$$

$$X_{\text{kg Fe}} = \frac{3,2 \text{ kg} \cdot 19\%}{100\%}$$

$$X = 0.608 \text{ kg Fe}$$

Demak, temir (Fe) kekda qolish qiymati 0,608 kg ni tashkil etadi.

c) Eritmani unsur elementlardan tozalashda hosil bo'lgan kekning miqdorini har bir birikmalarni (Mo, Cu, Fe) va summadan ( $\Sigma$ ) keltirib chiqamiz.

$$\Sigma = 2.04 + 0,564 + 0,608 = 3,21 \text{ kg}$$

Demak, unsur elementlardan tozalashda hosil bo'lgan kekning umumiy miqdorini 3,21 kg ni tashkil etadi.

Amaliyotdan olingan ma'lumotlarga ko'ra molibden kuyindilarni ammiakli eritmaga tanlab eritishda tog' jinslari ( $\text{SiO}_2$ ;  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ;  $\text{CaO}$ ) deyarli to'liq kekda qoladi. Shuni inobatga olgan holda jarayondan chiqayotgan kekning miqdorini va uni tashkil etgan komponentlarni foizni aniqlaymiz.

### Kekning umumiy massasini aniqlash

$$m_{\text{kek}} = \text{SiO}_2 + \text{Al}_2\text{O}_3 + \text{CaO} + \text{boshqalar} + \sum_{\text{Mo, Cu, Fe}} / 100 \cdot 100\% = 30$$

$$m_{\text{kek}} = 11 + 1,3 + 2,1 + 2,69 + 3,21 = 20,3 \text{ kg}$$

Demak, jarayonda kekning miqdori 20,3 kg ni tashkil etadi.

a) Kek tarkibidagi molibden (Mo) foizini aniqlash.

$$20,3 \text{ kg Mo} - 100\%$$

$$2,04 \text{ kg Mo} - X\%$$

$$\frac{2,04 \text{ kg} \cdot 100\%}{20,3 \text{ kg}}$$

$$X\% = \frac{2,04 \text{ kg} \cdot 100\%}{20,3 \text{ kg}} = 10,04$$

$$X = 10,04\%$$

Ya'ni, kekda molibden 10,04% ni tashkil etadi. Amaliyotda bu ko'rsatkich 5-10% ni tashkil qiladi.

b) Kek tarkibidagi mis (Cu)ni foizini aniqlash.

$$20,3 \text{ Cu} - 100\%$$

$$0,564 \text{ Cu} - X\%$$

$$\frac{0,564 \cdot 100}{20,3}$$

$$X\% = \frac{0,564 \cdot 100}{20,3}$$

$$X = 2,77\%$$

Demak, kek tarkibidagi mis (Cu) 2,77% ni tashkil etadi.

Amaliyotda bu ko'rsatkich 1,5 – 3% ni tashkil etadi.

c) Kek tarkibidagi temir (Fe) foizini aniqlash.

$$20,3 \text{ Fe} - 100\%$$


$$0,608 \text{ Fe} - X\%$$

$$X=2.99\%$$

Demak, kek tarkibidagi temir (Fe) 2.99% ni tashkil etadi.  
Amaliyotda bu ko'rsatkich 1-2% ni tashkil qiladi.

### **Ammoniy molibdat eritmasini unsur elementlar mis (Cu) va temir (Fe) dan tozalash jarayonini hisoblash**

Ammoniy molibdat eritmada 120-140 gr/l gacha molibden uch oksidi bo'lib, undan tashqari eritmani asosan mis va temir ionlari ifloslantiriladi. Eritmalardan bu ionlarni chiqarish uchun ularni sulfidlar hamda oltingugurt ammoniy bilan cho'ktiramiz. Ya'ni,



a) Jarayonga zarur bo'lgan ammoniy molibdat ( $\text{NH}_4\text{HS}$ ) miqdorini aniqlash.

Yuqoridagi hisoblarga ko'ra eritmamizni 3,0 kg mis ammoniy bilan kompleks tuzi hosil qilgan. Uni cho'ktirish uchun sarflanadigan sulfidini hisoblab topamiz, ya'ni, 64,0 mis sulfid birikmasida 32,0 ta oltingugurt bo'lsa, 3,0 kg misga qancha oltingugurt bor.

$$\begin{array}{r} 64,0 \text{ kg Cu} - 32,0 \text{ S} \\ 2,0 \text{ kg Cu} - X_S \\ \hline X_S = \frac{2,0 \cdot 32,0}{64,0} \text{ kg} \end{array}$$

$$X=1 \text{ ta S}$$

Demak, mis sulfid birikmasida 1 ta (S) oltingugurt tashkil etadi.

d) Ammoniy sulfidning molekulyar og'irligi 51,0 ga teng, uni bilgan xolda jarayonga sarflanadigan ammoniy gidrosulfid miqdorini aniqlash.


$$\begin{array}{r} 51,0 \text{ kg NH}_4\text{HS} - 32,0 \text{ ta S} \\ \frac{51,0 \text{ kg}}{51,0} - 1,0 \text{ ta S} \\ \hline \frac{1,0 \cdot 51,0 \text{ kg}}{32,0} \end{array}$$

$$X=1,59 \text{ kg NH}_4\text{HS}$$

Demak, ammoniy gidrosulfid 1,59 kg ni tashkil qiladi.

e) Xuddi shu miqdorda eritmadan temir ionini cho'ktirish uchun ammoniy gidrosulfidi sarflanadi, ya'ni, 2,39 kg  $\text{NH}_4\text{HS}$  u holda, temir ioni uchun ammoniy gidrosulfidi umumiy sarfi ikki marta ortadi.

Jarayon quyidagi reaksiya orqali boradi.



Demak, Fe uchun  $\text{NH}_4\text{HS}$  3,18 kg ni tashkil etadi.

### Nazorat savollari:

1. Eritma deganda nimani tushunasiz?
2. Ammoniy molibdat eritmasida qanday unsur elementlar mavjud?
3. Ammoniy sulfidning molekulyar og'irligi qancha?

### 18-amaliy mashg'ulot

**Kuydirilgan molibdenit boyitmalarini ammiakli eritmalarda tanlab eritish jarayonining material balansini hisobi**

18.1 – jadval

100 kg kuydirilgan molibden boyitmasini gidrometallurgik qayta ishlash jarayonini material balansini.

Jarayonga borayotgan				Jarayonga chiqayotgan			
No	Homashyo va reagentlar	Massa Kg	%		Olinadigan mahsulotlar	Massa kg	%
1.	Kuydirilgan Mo boyitmasi; Shu jumladan Mo	100 45.5 4.7	19,09		Eritma  Shu jumladan Mo Cu Fe	536.94  43.58 2.504 -	95.21

	Cu	3.2			Kek		
	Fe	1.2				20.3	3.87
	Zn	0.2			Shu jumladan		
	Pb	1			Mo	1.92	
	S	11			Cu	2.77	
	SiO <sub>2</sub>	1.3			Fe	2.99	
	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	2.1					
	CaO	28					
	Boshqalar				Cho'kindi	4.77	0,92
2.	Ammiakli eritma NH <sub>3</sub>	105.56	12,83		Shu jumladan		
3.	Ammoniy gidrosulfid NH <sub>4</sub> HS	3.18	0,6		Mo	-	
	Suv H <sub>2</sub> O	348.5	67.48		Cu	1.59	
					Fe	3.18	
	<b>Jami:</b>	<b>562.05</b>	<b>100%</b>		<b>Jam:</b>	<b>562.01</b>	<b>100%</b>

Bajarilgan texnologik hisoblarga asosan tarkibida 45.5% molibden bo'lgan 100 kg kuydirilgan molibden boyitmasini gidrometallurgik qayta ishlab 484.0 kg (yoki 0,484 m<sup>3</sup>) ammoniy molibat eritmasi olinadi.

Bunda molibdenni tozalanga ammoniy eritmasiga ajratib olish to'g'ridan – to'g'ri darajasi  $43.58:45.5 \cdot 100 = 95.78\%$  ni tashkil etadi. Qolgan 4.22% molibden keklardan va ammoniy molibden eritmasini unsur elementlardan tozalashda hosil bo'lgan cho'kmalarda taqsimlanadi. Ular oraliq mahsulot bo'lib, ulardan molibdenni ajratib olish xomashyoni soda aralashmasida ko'machlash yoki azot kislotasida parchalab yana qo'sh molibdat olish texnologiyasida qaytarilish orqali amalga oshiriladi.

### **Ammoniy molibdat eritmasini bug'latib, termik parchalab molibden uch oksidi olish jarayon hisobi**

Tozalangan molibden eritmasidan qo'sh molibdat ammoniyini (QMA) olish uchun uni legirlangan po'lat idishda bug'latish orqali amalga oshiriladi. Jarayon quyidagi reaksiya orqali olib boriladi.



Ammiakli eritmada 120 – 140 gr/l gacha molibden uch oksidi bo'lishini hisobga olsak, bizning misolimizda bu ko'rsatkichda 130 gr/l

deb qabul qilib, undan qancha qo'sh molibdat ammoniyni tuzini olish mumkinligini hisoblab topamiz.

topshirig'iga ko'ra gidrometallurgik jarayonda olingan ammoniy molibdat tuzi miqdorini aniqlab olamiz, ya'ni, hisoblashlarga ko'ra tarkibida 45.5% molideni bo'lgan 100 kg (yoki 0,1 t) boyitmani tanlab eritish natijasida tarkida 105.56 kg tuzi bo'lga ammoniy molibdat erimasi olinadi.

Olingan eritmadan bug'latish orqali qo'sh molibdat ammoniy tuzini quyidagi reaksiya orqali amalga oshiriladi.




Reaksiyadan foydalangan holda unsur elementlardan tozalangan ammoniy molibdat eritmadagi qo'sh molibdat ammoniy tuzi miqdorini aniqlab olamiz.

$$\begin{aligned} 1497,58 M_{(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4} - 1289,58 M_{(\text{NH}_4)_6\text{Mo}_7\text{O}_{24} \cdot 4\text{H}_2\text{O}} \\ 403,37 M_{(\text{NH}_4)_2\text{MoO}_4} \text{ ——— } X_{(\text{NH}_4)_6\text{Mo}_7\text{O}_{24} \cdot 4\text{H}_2\text{O}} \\ X=347,34\text{kg } (\text{NH}_4)_6\text{Mo}_7\text{O}_{24} \cdot 4\text{H}_2\text{O} \end{aligned}$$

Demak olingan 403,37 kg tozalangan ammoniy molibdat eritmasini 90°C haroratda bug'latib, sovitish natijasida 347,34 kg qo'sh molibdat ammoniy tuzi kristallarini olamiz.

Olingan qo'sh molibdat ammoniy tuzini termik parchalash orqali toza molibden uch oksidi olamiz.

Termik tozalash quyidagi uch bosqichda amalga oshadi:



18.1–jadval

Ammoniy molibdat eritmasidan molibden uch oksidi olish jarayonining material balansi

Termik parchalashga berilgan mahsulotlar			Termik parchalash mahsuloti		
Dastlabki material	Massa, kg	%	Olingan mahsulot	Massa, kg	%
1.Eritma, shu jumladan; Mo	536.88		1. Molibden uch oksidi, shu jumla-dan;	45.5	
	44.25				

			MoO <sub>3</sub> Cu	27.32	
Cu	2.504		2.Bug‘langan eritma (NH <sub>4</sub> )OH	491.38	
Jami	<b>536.88</b>		Jami	<b>536.88</b>	

Ishlab chiqarish unumdorligi bo‘yicha 18,0 tonna kuydirilgan molibden boyitmasida  $18,0 \cdot 0,455 = 8.19$  t molibden bo‘lib, boyitmani ammiakli eritmada tanlab eritish natijasida  $10,0 \cdot 0,455 \cdot 0.98 = 8.02$  t (ya‘ni 98%) molibden eritmaga (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub> MoO<sub>4</sub> tuz holda o‘tadi. Hisoblashlardan olingan natijalar asosida 18,0 molibden uchun tanlab eritish va eritmani unsur elementlardan tozalash jarayonining materiallar balansini ko‘rib chiqib jadvalga kiritamiz;

18,0 t. kuydirilgan molibden boyitmasini gidrometallurgik qayta ishlash jarayonining material balansini.

Jarayonga borayotgan				Jarayonga chiqayotgan			
No	Homashyo va reagentlar	Massa t	%	Olinadigan mahsulotlar	Massa t	%	
1.	Kuydirilgan Mo boyitmasi;	18.0	17.79	Eritma	96.64	95.82	
	Shu jumladan Mo	8.19		Shu jumladan Mo	7.84		
	Cu	0.846		Cu	0,450		
	Fe	0.576		Fe	-		
	Zn	0.216		Kek	3,65	3.6	
	Pb	0.036		Shu jumladan Mo	0,345		
	S	0.18		Cu	0,498		
	SiO <sub>2</sub>	1.98		Fe	0,538		
	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.234		Cho‘kindi	0,85		
	CaO	0.378					
	O <sub>2</sub>	4.62					
H <sub>2</sub> O(namlik)	0.252						
Boshqalar	0.48						

2.	Ammiakli eritma NH <sub>3</sub>	19	18.78	Shu jumladan			
3.	Ammoniy gidrosulfid NH <sub>4</sub> HS	0,572	0,565		Mo	-	
	Suv H <sub>2</sub> O	62.73	62.86		Cu	0,286	
					Fe	0,572	
	<b>Jami:</b>	<b>101.169</b>	<b>100%</b>	<b>Jam:</b>	<b>101.16</b>	<b>100%</b>	

Molibden boyitmalarining ammiak bilan parchalash jarayoni reaktivda amalga oshiriladi. Reaktiv – zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan yuqori bosimda va haroratda 550 – 600°C maxsus sig‘imdir. Sanoatda boyitmalarni tanlab eritish uchun gidrometallurgik jarayondan foydalaniladi.

Texnologik hisoblarga asosan davriy ishlaydigan reaktivni tanladik. Topshiriqda berilgan uning ishlab chiqarish unumdorligiga asosan reaktiv bir sutka davomida necha m<sup>3</sup> bo‘tanani qayta ishlash hajmini hisoblashdan boshlaymiz. Bunda quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$Q_{\text{sut}} = A/j + S$$

formulada: A – sexning konsentrat bo‘yicha ishlab chiqarish unumdorligi A=18,0 t/sut.

j – bo‘tanadagi qattiq moddaning umumiy massasiga nisbatan og‘irligi (t) m<sup>3</sup>,  $j = 18,0/3,95 = 4.55 \text{ m}^3$ .

S – eritmaning hajmi m<sup>3</sup>, kuydirilgan boyitmani tanlab eritishdagi qattiq– suyuqlikni nisbati q:s = 1: (3÷4), u holda S=18+96.64=114.64 t, yoki  $114.64 \cdot 1 \text{ m}^3 : 1,6 \text{ t/m}^3 = 71.65 \text{ m}^3$  bo‘ladi (bu yerda 1,6 bo‘tananing solishtirma og‘irligi, t/m<sup>3</sup>).

$$V_{\text{umum}} = A/j + S = 18.0 : 4.55 + 114.64 = 118.59 \text{ m}^3/\text{sut}$$

Sanoatda quyidagi texnik ko‘rsatkichdagi tanlab eritish reaktorlar ishlab chiqariladi.

V <sub>p</sub> ,m <sup>3</sup> .....	10	25	50	75	100	260	500
P,M .....	1,0	2,2	2,6	3,2	3,4	4,0	5,6
H,M.....	3,0	7,0	10	10	12	17	22
H/D.....	3,0	3,2	3,8	3,1	3,5	4,2	39

Gidrometallurgiyada tanlab eritish jarayonida asosan 100 va 260 m<sup>3</sup> li reaktorlardan foydalaniladi, 100 m<sup>3</sup> li reaktorni qabul qilamiz va umumiy reaktorlar sonini aniqlaymiz. Bitta reaktorning ishchi hajmi, uning umumiy xajmining 0,85% ni tashkil etadi, u xolda;

$$V_{\text{ishch}} = 100 \cdot 0,85 = 85\text{m}^3$$

topshrig'idagi ishlab chiqarish unumdorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan reaktorlar sonini aniqlaymiz

$$N = 118.59 : 85 = 1.3 \approx 2,0 \text{ ta}$$

Demak, sutkasiga 18 t kuydirilgan moliben boyitmasini tanlab eritish uchun 2 ta va eritmani unsur elementlardan tozalash uchun yana 2 ta hajmi 6 ta  $100 \text{ m}^3$  bo'lgan 6 ta mexanik aralashtirgichli reaktor qabul qilamiz.

### **Nazorat savollari:**

1. Molibden boyitmasini gidrometallurgik qayta ishlash jarayonining material balansi qanday tuziladi?
2. Termik parchalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
3. Eritma qanday idishda amalga oshiriladi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. TREATISE ON PROCESS METALLURGY Industrial Processes  
Editor-in-Chief SESHADRI SEETHARAMAN Copyright © 2014  
Elsevier Ltd. All rights reserved.

2. Valiyev X.R., Aribjonova D.E. Noyob metallar metallurgiyasi.  
ToshDTU, 2014. — 138 b.

3. Зеликман А.Н., Коршунов Б.Г. Металлургия редких металлов. -М.: Металлургия, 2002 г. — 328 с.

4. Ismoilov N.P “Kamyob, tarqoq va nodir metallar kimyoviy texnologiyasi” O‘quv qo‘llanma. — T.: Cho‘lpon, 2005. –168b.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // “Халқ сўзи” газетаси. 2017 й., 16 январь, №11.

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2017. — 46 б.

7. Шегай А.А., Шарипов Х.Т., Шегай М.А. Технология молибдена и материалов на его основе. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2010. — 254с.

8. Valiyev X.R., Saidova M.S. Noyob metallar metallurgiyasi «Metallurgiya» bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun amaliyot mashg’ulotlaridan uslubiy qo’llanma. — Т.: TDTU, 2014. – 52 b.

### Internet saytlar

10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
11. <http://www.agmk.uz>
12. <http://www.ngmk.uz>
13. <http://www.sciteclibrary.ru>
14. <http://misis.ru>

### MUNDARIJA

1- amaliy mashg’ulot	Volframitli boyitmalarning ratsional tarkibini hisobi.	3
2 amaliy mashg’ulot	Sheyelitli boyitmalarni ratsional tarkibini hisobi.	4
3- amaliy mashg’ulot	Volframitli boyitmalarni ko’machlash (spekaniya) uchun shixta tarkibini hisobi.	7
4- amaliy mashg’ulot	Sheyelitli boyitmalarni ko’machlash (spekaniya) uchun shixta tarkibini hisobi.	9
5- amaliy mashg’ulot	Volframitli boyitmalarni ko’machlash jarayonining material balansini hisobi.	14
6- amaliy mashg’ulot	Sheyelit boyitmalarni ko’machlash jarayonining material balansini hisobi.	15
7- amaliy mashg’ulot	Volfram boyitmalarni ko’machlash jarayonida qo’llaniladigan pech ishining issiqlik balansi hisobi.	17
8- amaliy mashg’ulot	Ko’machlangan volframitli boyitmalarni tanlab eritish jarayonining material balansini hisobi va asosiy dastgohlarni tanlash;	21

9- amaliy mashg'ulot	Natriy volframat eritmasini unsur elementlardan tozalash jarayonining material balansini hisobi va asosiy dastgohlarni tanlash.	24
10- amaliy mashg'ulot	.Natriy volframat eritmasidan sun'iy sheyelit olish va uni tozalash jarayonining material balansini hisobi va asosiy dastgohlarni tanlash	26
11- amaliy mashg'ulot	Qo'shvolframatammoniy tuzini olish va uni termik parchalab kimyoviy toza wolfra (III) oksidini olish jarayonining material balansini hisobi.	29
12- amaliy mashg'ulot	Natriy volframat eritmasini ekstraksiya usulida qayta ishlash jarayonining hisobi va asosiy dastgohlarni tanlash.	31
13- amaliy mashg'ulot	Natriy volframat eritmasini ionalmashuv usulida qayta ishlash jarayonining hisobi va asosiy dastgohlarni tanlash;	33
14- amaliy mashg'ulot	Volframitli boyitmalarni kislotalar bilan parchalash jarayonining hisobi va asosiy dastgohlarni tanlash.	36
15- amaliy mashg'ulot	Molibdenit boyitmalarini ratsional tarkibini hisobi.	39
16- amaliy mashg'ulot	Molibdenit boyitmalarini oksidlovchi kuydirish jarayonining material balansini hisobi.	44
17- amaliy mashg'ulot	Molibdenit boyitmalarini oksidlovchi kuydirish jarayonining issiqlik balansini hisobi;	47
18- amaliy mashg'ulot	Kuydirilgan molibdenit boyitmalarini ammiakli eritmalarda tanlab eritish jarayonining material balansini hisobi.	51

Muharrir: Miryusupova Z.M